IJTIMOIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Jumanazarova Asal
Toshkent davlat transport universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy-falsafiy asoslari, uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiy davlatning shakllanishi fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirish, imkoniyatlar tengligini yaratish hamda jamiyatda barqaror ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish bilan bog‘liqligi asoslanadi. Shuningdek, G‘arb ijtimoiy davlat nazariyalaridagi yondashuvlar ilmiy qarashlari tahlil etiladi. O‘zbekistonning konstitutsiyaviy rivojlanishida ijtimoiy davlat tamoyilining mustahkamlanishi hamda uni amalga oshirishning institutsional imkoniyatlari yoritiladi. Muallif tomonidan ijtimoiy davlatning zamonaviy taraqqiyotdagi ahamiyatini baholashga doir konseptual yondashuv ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy adolat, inson qadri, ijtimoiy tenglik, farovonlik, inson kapitali, ijtimoiy himoya, fuqarolik jamiyati, barqaror taraqqiyot.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti davlatning iqtisodiy va siyosiy faoliyati bilan bir qatorda, uning ijtimoiy mas’uliyati, fuqarolarning munosib hayot kechirishini ta’minlash imkoniyatlari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari bilan ham belgilanadi. Globallashuv, raqamli transformatsiya, mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar, ijtimoiy tabaqalanish va demografik jarayonlar davlat oldiga yangi ijtimoiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda davlat faoliyatining asosiy mezoni faqat iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari bilan emas, balki ushbu o‘sish natijalarining jamiyat a’zolari o‘rtasida qanday taqsimlanishi, inson salohiyatining qay darajada ro‘yobga chiqarilishi va ijtimoiy farovonlikning ta’minlanishi bilan ham belgilanadi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, davlat va jamiyat munosabatlarining yangi mazmunini ifodalaydi. Mazkur konsepsiyada davlat fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini tan oluvchi va himoya qiluvchi siyosiy-huquqiy institut bo‘lish bilan birga, ijtimoiy imkoniyatlar tengligini ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvining oldini olishga mas’ul subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

DOI: 10.5281/zenodo.24284526

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasida mamlakatning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlandi. Bu holat ijtimoiy davlat tamoyilining mamlakat taraqqiyot strategiyasidagi konstitutsiyaviy maqomini belgilab berdi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy davlat tushunchasini faqat huquqiy norma sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotini belgilovchi muhim konseptual tamoyil sifatida o‘rganish dolzarb ilmiy masaladir.

Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy-falsafiy mazmunini ochib berish, uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi funksional ahamiyatini aniqlash hamda O‘zbekiston sharoitida amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Ijtimoiy davlat tushunchasi davlatning jamiyat oldidagi mas’uliyati, inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisadir. Uning mohiyatini anglash uchun davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy rivojlanishi, fuqarolik huquqlarining kengayishi hamda ijtimoiy himoya institutlarining shakllanish jarayonlarini tahlil qilish zarur.

Ijtimoiy davlat nazariyasining muhim nazariy asoslaridan biri britaniyalik sotsiolog T.H.Marshallning fuqarolik va ijtimoiy huquqlar haqidagi qarashlarida namoyon bo‘ladi. Olim o‘zining 1950-yilda nashr etilgan «Citizenship and Social Class» asarida fuqarolikni fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlar majmui sifatida izohlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, fuqarolarning teng huquqli maqomga ega bo‘lishi faqat qonun oldidagi tenglik bilan cheklanmaydi. Buning uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot va munosib turmush sharoitlaridan foydalanish imkoniyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur nazariy yondashuv ijtimoiy davlatning mohiyatini anglashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki huquqiy jihatdan teng bo‘lgan fuqarolar real hayotda turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Demak, huquqiy tenglikning o‘zi ijtimoiy adolatni to‘liq ta’minlamaydi. Ijtimoiy davlat esa ushbu tafovutlarni kamaytirish, fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlaridan foydalanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga intiladi.

Mazkur tasnif ijtimoiy davlatning yagona universal institutsional shakli mavjud emasligini ko‘rsatadi. Har bir jamiyat o‘zining tarixiy tajribasi, iqtisodiy imkoniyatlari, milliy qadriyatlari va ijtimoiy tuzilishidan kelib chiqib, ijtimoiy siyosat modelini shakllantiradi. Shu sababli ijtimoiy davlatning xorijiy tajribasini o‘rganishda uning tashqi shakllarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishdan ko‘ra, asosiy tamoyillarini milliy ijtimoiy sharoitga moslashtirish muhimdir.

Bizningcha, ijtimoiy davlatni faqat davlat tomonidan taqdim etiladigan moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar tizimi sifatida talqin qilish uning mazmunini toraytiradi. Uning mohiyati jamiyat a’zolarining o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur ijtimoiy muhitni yaratish, insonning ijtimoiy mavqeyi va hayotiy imkoniyatlarini tasodifiy iqtisodiy omillarga to‘liq bog‘liq bo‘lib qolishidan himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, ijtimoiy davlat yordam beruvchi davlatdan imkoniyat yaratuvchi va ijtimoiy mas’uliyatni taqsimlovchi davlatga aylanishi lozim.

Ushbu yondashuv ijtimoiy davlatning zamonaviy modelini tushunishda alohida ahamiyatga ega. Chunki davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy yordam qisqa muddatli ehtiyojlarni qondirishi mumkin, biroq ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, sog‘liqni saqlash va bandlikka yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli ijtimoiy natijalarni yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy davlatning nazariy-falsafiy mazmunini uchta o‘zaro bog‘liq tamoyil orqali izohlash mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy adolat tamoyili – jamiyat a’zolari o‘rtasida mavjud bo‘lgan ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va munosib hayot kechirish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Ikkinchidan, ijtimoiy imkoniyatlar tengligi tamoyili – fuqarolarning ta’lim, mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.

Uchinchidan, ijtimoiy mas’uliyat tamoyili – davlat, jamiyat institutlari, ish beruvchilar va fuqarolarning umumiy farovonlikni ta’minlashdagi mas’uliyatini uyg‘unlashtirish.

Mazkur tamoyillar ijtimoiy davlatni faqat iqtisodiy taqsimot mexanizmi sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy yaxlitligini ta’minlovchi institutsional va ma’naviy tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy davlatning ahamiyati bir nechta o‘zaro bog‘liq funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Ular orasida ijtimoiy himoya, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, jamiyat barqarorligini ta’minlash va fuqarolarning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash alohida o‘rin tutadi.

Birinchi navbatda, ijtimoiy davlat ijtimoiy himoya tizimining samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar, mulkiy imkoniyatlar va mehnat bozoridagi mavqelar o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelishi tabiiy jarayondir. Biroq ushbu tafovutlar aholining muayyan qatlamlari uchun ta’lim, tibbiy xizmat va munosib turmush sharoitlaridan foydalanishda jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqarmasligi kerak. Shu jihatdan ijtimoiy davlatning vazifasi barcha fuqarolarning daromadlarini bir xil darajaga keltirish emas, balki insonning

asosiy ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy hayotda munosib ishtirok etishi uchun zarur kafolatlarni yaratishdan iboratdir. Bunda ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi, adolatliligi, shaffofligi va samaradorligi muhim mezon hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy davlat inson kapitalini rivojlantirishning muhim institutsional omili sifatida namoyon bo‘ladi. Inson kapitali faqat bilim va kasbiy malakalar yig‘indisi emas, balki insonning salomatligi, ijtimoiy moslashuvchanligi, ijodiy salohiyati va mehnat faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini ham qamrab oladi.

Mazkur fikrni rivojlantirgan holda aytish mumkinki, zamonaviy ijtimoiy davlatda ta’lim va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan xarajatlar faqat ijtimoiy iste’mol sifatida emas, balki kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi investitsiya sifatida baholanishi zarur. Chunki malakali, sog‘lom va ijtimoiy faol aholi jamiyatning innovatsion salohiyatini oshiradi. Uchinchidan, ijtimoiy davlat jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy tengsizlikning haddan tashqari kuchayishi, fuqarolarning davlat institutlariga ishonchi pasayishi va ijtimoiy imkoniyatlarning cheklanishi jamiyatda norozilik kayfiyatlarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy davlat ijtimoiy ziddiyatlarni faqat ularning oqibatlarini bartaraf etish orqali emas, balki kelib chiqish sabablarini kamaytirish orqali boshqarishi lozim.

Bu yerda ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik muhimdir. Ijtimoiy adolat barqarorlikning zarur shartlaridan biri bo‘lsa, barqaror ijtimoiy muhit adolat tamoyillarini izchil amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratadi. Demak, ijtimoiy davlat faoliyatining samaradorligi ushbu ikki omilning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

To‘rtinchidan, ijtimoiy davlat fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi uchun ham muhim sharoit yaratadi. Davlatning barcha ijtimoiy ehtiyojlarni bevosita va mustaqil ravishda qondirishi amaliy jihatdan murakkab. Shu sababli nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla institutlari, kasaba uyushmalari, xayriya tashkilotlari va boshqa jamoat birlashmalarining ijtimoiy siyosatdagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday hamkorlik ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash, yordamning manzilliligini ta’minlash, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari davlatning ijtimoiy mas’uliyatini o‘z zimmasiga oluvchi muqobil tuzilma sifatida emas, balki uning faoliyatini to‘ldiruvchi va ijtimoiy ehtiyojlarga yaqinlashtiruvchi mustaqil hamkor sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy davlatning rivojlanganlik darajasini faqat ijtimoiy xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bilan o‘lchash metodologik jihatdan

yetarli emas. Chunki mablag‘larning ko‘pligi har doim ham ularning samarali taqsimlanishini anglatmaydi. Ijtimoiy davlat faoliyatini baholashda kamida to‘rtta mezonni hisobga olish maqsadga muvofiq:

1. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va ularning hududlar bo‘yicha tengligi.

2. Ijtimoiy yordamning manzilliligi va aholining real ehtiyojlariga muvofiqligi.

3. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik orqali inson kapitalining rivojlanishi.

4. Fuqarolarning ijtimoiy siyosatni shakllantirish va nazorat qilishdagi ishtiroki.

Mazkur mezonlar ijtimoiy davlatning faoliyatini faqat sarflangan resurslar nuqtayi nazaridan emas, balki erishilgan ijtimoiy natijalar asosida baholash imkonini beradi.

O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyilining konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanishi davlat va jamiyat munosabatlarining mazmunan yangilanishida muhim bosqich bo‘ldi. 2023-yil 30-aprel kuni referendum orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida mamlakatning ijtimoiy davlat ekanligi belgilandi. Bu norma davlatning ijtimoiy mas’uliyatini konstitutsiyaviy darajada e’tirof etish bilan birga, ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini huquqiy jihatdan asoslash imkonini yaratdi.

Konstitutsiyada mustahkamlangan mazkur tamoyilning mazmuni davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilishi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashi, fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratishi kabi vazifalar bilan uzviy bog‘liq. Shu jihatdan ijtimoiy davlat tamoyili alohida bir siyosiy shior emas, balki davlat organlari faoliyatining mazmuni va natijalariga qo‘yiladigan konstitutsiyaviy talab sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq ijtimoiy davlat konsepsiyasining to‘liq ro‘yobga chiqishi faqat ijtimoiy yordam mexanizmlarining kengayishi bilan belgilanmaydi. Uning samaradorligi ijtimoiy siyosatning profilaktik, rivojlantiruvchi va institutsional jihatlari qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq. Masalan, ishsiz fuqaroga vaqtinchalik moddiy yordam ko‘rsatish uning muayyan ehtiyojini qondiradi. Ammo kasbiy qayta tayyorlash, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va barqaror ish o‘rni bilan ta’minlash uzoq muddatli ijtimoiy natijani yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat konsepsiyasini amalga oshirishda ijtimoiy himoyadan ijtimoiy rivojlantirishga bosqichma-bosqich o‘tish muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy yordamni qisqartirish emas, aksincha, yordamni insonning mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirishni anglatadi.

O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy tuzilishida mahalla institutining alohida o‘ringa egaligi ham ijtimoiy davlat modelining milliy xususiyatlarini belgilaydi. Mahalla aholi ehtiyojlarini aniqlash, ijtimoiy muammolarni mahalliy darajada o‘rganish va jamoatchilik ishtirokini ta’minlashda muhim imkoniyatlarga ega. Biroq mahalla institutining samarali faoliyati uchun uning qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, professional salohiyati, ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatlari va jamoatchilik oldidagi hisobdorligi mustahkamlanishi lozim.

Bu borada davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning institutsional mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda jamoat tashkilotlarining takliflarini hisobga olish, ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va mustaqil jamoatchilik monitoringini rivojlantirish ijtimoiy davlatning demokratik mazmunini kuchaytiradi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasining zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini o‘rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, ijtimoiy davlat davlat va jamiyat munosabatlarining rivojlangan shakli bo‘lib, unda davlatning legitimligi nafaqat siyosiy-huquqiy tartibni ta’minlash, balki fuqarolarning ijtimoiy huquqlari va munosib hayot kechirish imkoniyatlarini kafolatlash bilan ham belgilanadi. Shu sababli ijtimoiy davlatning mohiyatini inson qadri, ijtimoiy adolat va imkoniyatlar tengligi tamoyillarining o‘zaro birligi asosida tushunish lozim.

Ikkinchidan, ijtimoiy davlatning samaradorligi ijtimoiy yordam hajmi bilangina emas, balki uning inson salohiyatini rivojlantirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va fuqarolarning mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirishdagi natijalari bilan belgilanadi. Shu ma’noda, zamonaviy ijtimoiy davlat modeli himoya va rivojlantirish funksiyalarining uyg‘unligiga asoslanishi zarur.

Uchinchidan, ijtimoiy investitsiya yondashuvi ijtimoiy siyosatni qisqa muddatli xarajatlar tizimi sifatida emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga yo‘naltirilgan strategik faoliyat sifatida baholash imkonini beradi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlikka yo‘naltirilgan investitsiyalar inson kapitalini mustahkamlash orqali jamiyatning umumiy rivojlanish salohiyatini oshiradi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyilining Konstitutsiyada mustahkamlanishi ijtimoiy siyosatni rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos yaratdi. Endilikda ushbu tamoyilning amaliy natijadorligini ta’minlash ijtimoiy xizmatlar sifati, hududlararo imkoniyatlar tengligi, manzilli yordam samaradorligi va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining kengayishi bilan bevosita bog‘liq.

Beshinchidan, ijtimoiy davlatni shakllantirish davlatning jamiyat oldidagi barcha mas’uliyatini bir tomonlama zimmasiga olishi emas, balki davlat, fuqarolik

jamiyati institutlari, xususiy sektor va fuqarolarning o‘zaro mas’uliyatiga asoslangan hamkorlik tizimini rivojlantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi Qonuni.// «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga sharhlar.-T.:Adolat, 2001.

2. Jalilov Sh. Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari. –T.: O‘zbekiston, 2001. - 160 b.

3. Jo‘rayev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot /Ilmiy-tahliliy maqolalar to‘plami. -T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti nashr., 2003. -364 b.

4. Mirzayev A. Fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlar.-T.: TDTU, 2005.- 172 b. 1. Nazarov Q. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy maqsad va vazifalari. -T., 2001.-272

5. .Белл Д. Социальные рамки информационного общества. //Кравченко А.И. Социология. Хрестоматия для вузов. -М.:Академический Проект, 2002.- Б.107-122.

6. Turg’inovich, Z.Z. (2026). Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish va huquqbuzarlik profilaktikasini ta’minlashda ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kengaytirish masalalari. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 47-52.